

Ijodiy yoshdashuv orqali o'quvchilarda badiiy qadriyatni shakllantirish va dunyoqarashining boyish jarayonidir.

**Shomurodov Oybek
Buxoro davlat universiteti, dotsent**

Annotatsiya. Tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi (yangi darajaga o'tish), shaxsning o'z-o'zini namoyon etishi (mas'uliyatlilikning shakllanishi), yangi sifatlarning shakllanishi, shaxsning integratsiyalashuvi amalga oshadi. Tasviriy san'atda ijodiy yendashuv orkali ukuvchilarda baddiy kadriyatini shakllantiradi va dunerakarashini boyitadi.

Kalit suzlar: san'at, ijodiy, uquvchilar, baddiy qadriyat, maktab.

Абстрактный. В процессе воспитания происходит социализация, развитие личности (переход на новый уровень), самовыражение личности (формирование ответственности), формирование новых качеств, интеграция личности. Творческое отношение к изобразительному искусству формирует художественный талант учащихся, обогащает их кругозор.

Ключевые слова: искусство, творчество, учащиеся, художественный талант, школа.

Abstract. In the process of education, socialization, development of the individual (transition to a new level), self-expression of the individual (formation of responsibility), formation of new qualities, and integration of the individual take place. A creative attitude in visual arts forms the students' artistic talent and enriches their outlook.

Key words: art, creative, students, artistic talent, school.

Umumiy o'rta ta'lif mablag'ida tasviriy san'at darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amalièt bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lif va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat

va xalqlar haётini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek xalqining haёti va mehnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba'zi chet xalqlarining haёti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin.

Tasviriy san'at orqali bolalar, o'z ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda o'z fikrlarini, hissiyotlarini va tasavvurlarini ko'rsatadi. Bu, ularning o'z dunyolarini boshqalar bilan ulashishda, o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishda ularga yordam beradi. Quyidagi usullar bolalar uchun ijodkorlikni rivojlantirishda yordam berishi mumkin: 1. San'at asarlarini va g'oyalarini o'rganish: Bolalarga san'at asarlarini ko'rish, ularni badiiy tahlil qilish bilan bolalarda dunyoqarash va badiiy tafakkur rivojlanadi. 2. Rag'batlantirish: Iste'dodli bolalarni o'rtasida tanlovlardan tashkil etish. G'olib va ishtirokchilarni sovg'alar bilan ilhomlantirish. 3. Kreativlikni qo'llash uchun o'zgaruvchan muhit yaratish: Bolalar uchun eng muhim narsa, ularning ijodiy va fikr qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'zgaruvchan muhit yaratishdir. Bu maqsadga mos bo'lgan kutubxonalar, san'at markazlari yoki guruhda amalga oshiriladigan mashg'ulotlar foydali bo'lishi mumkin.

Tarbiya tushunchasining ikki xil ma'nosini ajratib olish zarur: tarbiya jarayon sifatida va tarbiya natija sifatida. Ko'pincha yaxshi tarbiyalanganlik yoki yomon tarbiyalanganlik haqida gapiriladi. Biroq tarbiyada maqsadga erishilganlik emas, unga erishish usullari muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tarbiya inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha davom etadi. Tabiiyki, individning yoshi, ijtimoiy maqomi bilan bog'liqlikda unga ko'rsatilayotgan tarbiyaviy ta'sir darajasi ham o'zgarib boradi. Ana shunday o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda, zamonaviy pedagogika ilmida tarbiyaviy jarayon amalga oshiriladigan davrlarga mos bir qancha tarbiyaviy paradigmalar ishlab chiqilgan. Mazkur tarbiyaviy paradigmalar orasida quyidagi to'rttasi keng tarqalgan:

Pedagogik paradigma.

Andrologik paradigma.

Akmeologik paradigma.

Kommunikativ paradigma.

Pedagogik paradigma. Pedagogik paradigma konsepsiysi insonni tarbiyalash majburlash, talab etish kabi tashqi ta'sirlar tizimidan iborat. Shuning mazkur tarbiya paradigmida tarbiyalanuvchi tarbiya mazmunini, tarbiya jarayonidagi uning zaruriyatini anglab yetmaydi, deb hisobalanadi. Shuning uchun qo'yilgan maqsadga erishishning yagoni yo'li – majburlashdir.

Andrologik paradigma. Mazkur paradigmada tarbiyalanuvchi tarbiya jarayonini anglaydi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va ularga erisha oladi, degan konsepsiya yotadi. Mazkur vaziyatda pedagogning vazifasi insonning bu yo'ldagi harakatini qo'llab-quvvatlovchi fatsilitatorlik roli bilan almashinadi.

Akmeologik paradigma. Akmeologik paradigmada maqsadga yo'naltirilgan tarbiya insonning o'z faoliyati cho'qqisiga erishishi, o'z potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishi uchun maksimal yordam berish ko'zda tutiladi. Mazkur yondashuv ijodiy yo'nalgalikka ega bo'lib, insoniy munosabatlarda yuqori darajada individuallikka erishish yorqin namoyon bo'ladi. Ushbu vaziyatda tarbiyachidan katta harflar bilan yoziladigan SHAXS bo'lish talab etiladi.

Kommunikati paradigma. Kommunikativ paradigma konsepsiysi rivojlanish darajasiga ko'ra bir xil guruhga mansub insonlarning muloqoti va bиргаликда тараққиёт этиши масаласини ко'rib chiqadi. О'заро muloqot jarayonida insonlarni takomillashiga xizmat qiluvchi axborotlar, bilim va ko'nikmalar almashinadi. Ilmiy sohada bu xilma-xil simpoziumlar, konferensiylar, seminarlar shaklida amalga oshadi. Kommunikativ paradigma xilma-xil guruhli psixologik treninglar asosidan tashkil topadi.

Tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi (yangi darajaga o'tish), shaxsning o'z-o'zini namoyon etishi (mas'uliyatlilikning shakllanishi), yangi sifatlarning shakllanishi, shaxsning integratsiyalashuvi amalga oshadi.

"Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "Falsaфа. Qisqacha izohli lug'at'da quyidagicha sharhlangan: "Jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni".

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviylar va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

olganida, o‘z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta’lim-tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuvning mufassal tavsifini va uning pedagogik faoliyatdagi o‘rnini A.M.Stolyarenko quyidagicha keltirib o‘tadi: “...Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining sifat xususiyatlariiga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o‘ziga xosliklari) ko‘ra murakkabdir”. Ana shu sababli u o‘zida turli fanlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil

– madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o‘ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e’tibor bilan qarab o‘tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni – tarbiyalanganlik, ta’lim olganlik, ma’lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o‘zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallahda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o‘z- o‘zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o‘z hayot yo‘li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi – insonga fikrlovchi shaxs, o‘z davlatining va jahoning fuqarosi bo‘lib yetishishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini va xulq-atvorini, o‘z istak-maqсадalarini yo‘nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo‘nalgan shaxs bo‘lishiga yordam berishdir”.

Tarbiyaviy amaliyotda internalizatsiya deganda faqat ijtimoiy g‘oyalarni o‘zlashtirishnigina emas, balki mazkur g‘oyalarni shakllantirishdagi inson hayat tarzi dominantalari, regulatorlarini tushunish kerak. Qachonki, inson ularni tushunchalar, bilimlar, ko‘nikmalar tarzida egallasagina, ijtimoiy g‘oyalar internalizatsiyalangan hisoblanadi.

Qadriyatlarni dunyosini tarbiyalashga faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan faoliyat dunyosi “boshqalarga yo‘nalgan harakat; o‘z-o‘ziga yo‘nalgan harakat; ichki olmga

yo'nalgan harakat" chizmasi bo'yicha ohib beriladi. Mazkur chizmada eng asosiysi, anglangan va anglanmagan internalizatsiyalangan g'oyalarning munosabati haqidagi masala aks etadi.

Adabiyotlar

1. Н.Н. Ростовцев, С.Е. Игнатьев, Е.В. Шорохов. "Рисунок. Живопись. Композиция" Москва просвещение-1989.
2. Г.Абдурахмонов "Рангтасвир ва композициядан методик тавсиялар". I-курс. Тошкент-1995.
3. Ботиров, Д. С., Шомуродов, О. Н., & Ширинов, А. Л. (2021). МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *European science*, (2 (58)), 101-103.
4. Shomurodov O. N. Perception and depiction of basic color relationships in painting performance //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 4. – №. 11. – С. 62-65.
5. Shomurodov O. N. HAYKALTAROSHLIK TASVIRIY SAN'ATNING TURI SIFATIDA //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 51-57.
6. Шомуродов О. Н., Аvezov III. Н. Компьютерные технологии обучения //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 51-54.
7. Ширинов А. Л., Батиров Д. С., Шомуродов О. Н. Важность цветоведения в изобразительном искусстве //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 5 (64). – С. 83-85.
8. Аминов А. Ш. и др. Проблемы организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 77-79.
9. Маматов Д. К. и др. Знаметие художники и новые подходы к подготовке молодых специалистов-учителей рисования, разработка уроков художественной графике //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 832-837.
10. Mamatov D. K. The importance of teaching architecture drawing in secondary schools //E-Conference Globe. – 2021. – С. 102-104.

11. Абдуллаев, Сухроб Сайфуллаевич. "ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА." *PEDAGOGS jurnalı* 1.1 (2022): 384-386.
12. Абдуллаев С. С., Шарипов Ш. Ш. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА //XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 80-85.
13. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
14. Laue S., Abdullaev S. S. Legends and True Stories about the Samanid Mausoleum //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 308-311.
15. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avlyakulov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2)*.
16. Abdullayev¹ S. F., Abdullayev S. S. TRANSLATION OF CULTURAL VALUES IN THE ARTISTIC HERITAGE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS OF BUKHARA.
17. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
18. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
19. Sayfullayevich A. S. CHALLENGES OF TRAINING FINE ARTS TEACHERS IN THE PRESENT //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 348-353.
20. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.

21. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 35-39.
22. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – C. 9671–9678-9671–9678.
23. Aminov, A. S., Mamurova, D. I., & Shukurov, A. R. (2021, February). Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance. In *E-Conference globe* (pp. 34-37).
24. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 17-22.
25. Mamurova D., Khusnidinova N. Didactic possibilities of using computer graphics programs in the educational process //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 84. – C. 02020.
26. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 335-338.
27. Ibatova, Nigora Istamovna, and Liliya Renatovna Zaripova. "In The Works of Uzbek Artists of Xix-Xx Centuries Landscape Genre." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.4 (2022): 14-17.
28. Istamovna, I. N. (2023, November). Pedagogical approaches to the development of artistic thinking of students. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 5, pp. 40-42).
29. Ibadullayeva S. "MANZARA JANRIDA IJOD QILGAN RASSOMLAR ASARIDAN NUSXA KO'CHIRISH" MODULINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.
30. Собирова Ш. У. и др. Основы, цели и задачи обучения изобразительному искусству //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 62-65.
31. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31